



## «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI QONUN VA INKLYUZIYA.

Yusupova Ziyoda Xodjimuratovna

Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish jahon hamjamiyatida o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. SHuni aytib o'tish joizki, inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. CHunki aynan ijtimoiy sheriklik texnologiyalari orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida manfaatdor guruhlar o'rtasida konstruktiv munosabatlarni shakllantirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, integrativ ta'lim, meynstriming, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyati, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida jadal suratlar bilan inklyuziv ta'lim rivojlanmoqda. CHunki, aynan inklyuziv ta'limning rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim olishning keng imkoniyatlarini beradi. Nogironligi bo'lmagan bolalar va shaxslar nogironlik muammolarini tushunishadi. Nogironligi bor shaxslarning jamiyatdan ixotalanishi (izolyatsiyasi) kamayadi. Natijada nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida namoyon bo'ladi va jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni rivojlanishiga bugungi kunda katta ahamiyat qaratilmoqda. Jahon tajribasi chuqur o'rganilmoqda.

«Inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir».

Bu shuni anglatadiki, bolalar o'z yashash joylarida ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega. Umumta'lim maktablari maxsus ta'lim ehtiyojlarini hisobga oladi va o'quvchilarga zarur maxsus yordam ko'rsatadi. Va nihoyat, barcha bolalar tengdoshlari bilan teng ravishda o'rganishlari, rivojlanishi, ijtimoiylashishi va bir-biriga bag'rikenglikni o'rgatishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda barcha bolalar, shu jumladan nogironlar maxsus ajratilgan guruhda emas, balki bir sinfda o'qiydilar. SHunisi e'tiborga loyiqlik, maxsus guruhlar va muassasalar qolaveradi, ular tugatilmaydi, ammo ota-onalar bolasi uchun muassasani tanlash huquqiga ega.

2020 yil 23 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'quv dasturiga emas, balki bolalarga qaratilgan. Bunga har bir bolaning, shu jumladan nogironligi bo'lgan va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini qondiradigan pedagogika orqali erishiladi.



Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga etkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Qonunda ta'lim olish shakllarida inklyuziv ta'lim kiritildi. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir..

Inklyuziv (frantsuzcha inklyuziv – shu jumladan, lot. Inklude – men xulosa qilaman, shu jumladan) yoki inklyuziv ta'lim – bu maxsus ehtiyojga ega bolalarni umumiy ta'lim (ommaviy) maktablarida o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama.

Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 70 yillaridan boshlab inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir turli xil me'yoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni boshlangan. Bu borada nogironlarni jamiyatga jalb qilish uchun AQSH va Evropa mamlakatlarida asosan 3 ta yondashuv keng tarqalgan.

- 1.Meynstriming
2. Integratsiya
- 3.Inklyuziv

Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiladigan, barcha odamlarga teng munosabatni ta'minlaydigan, ammo maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limning rivojlanish jarayoni, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limning tamoyillari:

- insonning qiymati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog'liq emas;
- har bir inson his qilish va fikrlashga qodir;



- har kim muloqot qilish va tinglash huquqiga ega;
- barcha odamlar bir-biriga muhtoj;
- haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;
- barcha odamlar tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stligiga muhtoj;
- barcha o'quvchilar uchun muvaffaqiyatsizlikka qaraganda, ular qila oladigan narsalarga erishish ehtimoli ko'proq;
- turli xillik inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilaydi.

Inklyuziv ta'lim tizimiga o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari kiradi. Uning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda bolalarni o'qitish va o'qitishda to'siqsiz muhit yaratishdir. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini hamda o'qituvchilar va boshqa talabalar uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'limning jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak 1970 yillardan boshlab, nogironligi bor bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun normativ hujjatlar to'plami ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Amerika Qo'shma SHtatlar va Evropada zamonaviy ta'lim siyosatida bir nechta yondashuvlar ishlab chiqilgan, shu jumladan: ishtirokni kengaytirish, asosiy oqimga qo'shilish. Ta'kidlash joizki, nogironligi bor o'quvchilar ta'til kunlari, o'zlarining tengdoshlari bilan turli xil bo'sh vaqt dasturlarida muloqot qilishadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, qabul qilingan qonun ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi printsipli kiritilmoqda. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasidagi hech bir bola davlatimizning nazaridan chetda qolmaganligining isbotidir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Табољская О.А., ЯАковлева I.V. Тyutorstvo v usloviyax razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. – Moskva–Berlin, 2019. – S. 11.
1. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi. 1948 y.
2. Bola huquqlari deklaratsiyasi. 1959 y.
3. Ta'lim olishda kamsitishga qarshi kurashish konventsiyasi. 1960 y.
4. Sushentsova V.G., Burkova M.V. Pravovaya reglamentatsiya inklyuzivnogo obrazovaniya: .
5. Salamanskaya deklaratsiya. 1994 g.
6. Gamburgskaya deklaratsiya ob obrazovaniy vzroslyx. 2000 g.
7. BMTning Nogironlar huquqlari konventsiyasi. 2008yil.



8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019 yil 29 apreль. PF-5712-son.
9. Muminov A., Nishanbaeva E., Abduxalilov A. Ijtimoiy sheriklik. Uslubiy qo'llanma. Universitet nashriyoti. – T.:2018 yil. – B.17.
10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda.